

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASÍ
MINISTRLER KEÑESINIŃ
QARARI**

2023 - yil 13 - fevral

53-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani "Qutli makan" MFY
hududidan doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdag'i "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-sون qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdag'i "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4804-sonli qarori ijrosi yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani hokimligining 2022-yil 14-noyabrdagi 01-11/933-sonli buyurtma xatini inobatga olib, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qorao'zak tumani "Qutli makan" MFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 0,09 hektar yer maydonni ilovaga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga "Mehnat guzari" majmuasini qurish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratib berilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Y.Alimov)ga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda:

- ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

- ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

- ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin boshlash vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**




F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 13 fevraldagi
53-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Qoraqolpoǵiston Respublikasi Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligiga Qorauzak tumani
“Qutli makan” MFY hududidan “Mehnat guzari” majmuasi qurish ushun ajratib
berish rejalashtirilgan yer uchastkasining joylashish**

TARXI m -b 1: 3000



Yer uchastkasi haqida qisqacha malumotlar: Yer uchaskasi Qorauzak tumani Qutli makan MFY hududida joylashgan bu'lub, Sharq tarafdan: Katta yol 41 m masofada

Garb tarafdan: Ochiq maydon

Shimol tarafdan: Kollektor 15 m masofada

Janub tarafidan: Maktab binosi 18 m masofada

Koordinatası: 1. $43^{\circ} 2'0.04''$ с.ш. $60^{\circ} 0'53.05''$ в.д.

2. $43^{\circ} 2'0.53''$ с.ш. $60^{\circ} 0'51.91''$ в.д.

3. $43^{\circ} 1'59.68''$ с.ш. $60^{\circ} 0'51.22''$ в.д.

4. $43^{\circ} 1'59.20''$ с.ш. $60^{\circ} 0'52.38''$ в.д.

Tuman markazidan 900 m masofada

Yer uchastkasi maydoni: 0,09 ga

Yer fondi: Axoli punkti yerlari

Qaysi maxsadta foydalansa buladi: Mehnat guzari majmuasi qurish uchun

Yer turi: Qishloq xujaligidagi foydalanimaydigan boshqa yerlar,

Ball boniteti: Boxolanmagan

Yer uchatkasining kadastr raqami: 23:14:01:01:01:1799